



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 44 216 tani (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 38 149 ta) tashkil etdi.


Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yillar kesimida
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda.)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023-yil yanvar–noyabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 945 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 2 315 taga, oilaviy korxonalar 317 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida


| | | | | | |
|------------------|-------|--------|-------------------|-----|--------|
| Samarqand sh. | 1 731 | 14,2 % | Ishtixon t. | 368 | 16,5 % |
| Pastdarg‘om t. | 627 | 18,7 % | Toyloq t. | 366 | 18,1 % |
| Samarqand t. | 627 | 18,1 % | Jomboy t. | 307 | 16,5 % |
| Urgut t. | 513 | 14,6 % | Nurobod t. | 284 | 19,3 % |
| Bulung‘ur t. | 451 | 23,7 % | Kattaqo‘rg‘on sh. | 254 | 17,3 % |
| Payariq t. | 405 | 17,9 % | Paxtachi t. | 248 | 18,3 % |
| Oqdaryo t. | 379 | 19,3 % | Narpay t. | 245 | 15,4 % |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 379 | 16,3 % | Qo‘shrabot t. | 212 | 17,7 % |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar savdo sohasida 16 526 tani, sanoatda 6 321 tani, yashash va ovqatlanishda 3 439 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 978 tani, qurilishda 2 553 tani tashkil etmoqda.



Hududlar kesimida

| | | | |
|------------------|--------|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 12 225 | Oqdaryo t. | 1 960 |
| Urgut t. | 3 521 | Bulung'ur t. | 1 904 |
| Samarqand t. | 3 471 | Jomboy t. | 1 857 |
| Pastdarg'om t. | 3 360 | Narpay t. | 1 592 |
| Kattaqo'rg'on t. | 2 328 | Kattaqo'rg'on sh. | 1 469 |
| Payariq t. | 2 266 | Nurobod t. | 1 468 |
| Ishtixon t. | 2 228 | Paxtachi t. | 1 353 |
| Toyloq t. | 2 019 | Qo'shrabot t. | 1 195 |



2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni

7 227 ta bo'lib, shundan;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar 7 210 ta;

-yirik korxonalar 17 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

| | | | | | |
|------------------|-------|--------|-------------------|-----|--------|
| Samarqand sh. | 1 683 | 15,5 % | Toyloq t. | 361 | 20,6 % |
| Pastdarg'om t. | 623 | 21,5 % | Ishtixon t. | 360 | 18,7 % |
| Samarqand t. | 615 | 19,4 % | Jomboy t. | 302 | 18,5 % |
| Urgut t. | 486 | 16,3 % | Nurobod t. | 276 | 22,3 % |
| Bulung'ur t. | 446 | 27,2 % | Kattaqo'rg'on sh. | 249 | 19,3 % |
| Payariq t. | 398 | 20,7 % | Paxtachi t. | 244 | 22,0 % |
| Kattaqo'rg'on t. | 373 | 18,8 % | Narpay t. | 238 | 18,2 % |
| Oqdaryo t. | 371 | 21,6 % | Qo'shrabot t. | 202 | 21,2 % |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yil 1-dekabr holatiga 38 348 taga yetib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 147,8 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,1 foiz, sanoat – 6,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,7 foiz, qurilish – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,4 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz va boshqa turlari – 10,4 foiz.

Hududlar kesimida


| | | | |
|------------------|--------|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 10 824 | Oqdaryo t. | 1 721 |
| Samarqand t. | 3 176 | Bulung'ur t. | 1 640 |
| Urgut t. | 2 986 | Jomboy t. | 1 629 |
| Pastdarg'om t. | 2 903 | Narpay t. | 1 307 |
| Kattaqo'rg'on t. | 1 979 | Kattaqo'rg'on sh. | 1 290 |
| Ishtixon t. | 1 925 | Nurobod t. | 1 238 |
| Payariq t. | 1 919 | Paxtachi t. | 1 107 |
| Toyloq t. | 1 751 | Qo'shrabot t. | 953 |

2023-yil yanvar–noyabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023-yil yanvar-noyabr oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 125 tadan 208 taga (o'sish 83 taga) yetdi.



Hududlar kesimida

| | | | | | |
|------------------|-------|--------|-------------------|-----|--------|
| Samarqand sh. | 1 677 | 15,6 % | Ishtixon t. | 360 | 18,7 % |
| Pastdarg'om t. | 622 | 21,5 % | Toyloq t. | 360 | 20,6 % |
| Samarqand t. | 612 | 19,4 % | Jomboy t. | 301 | 18,6 % |
| Urgut t. | 486 | 16,3 % | Nurobod t. | 276 | 22,4 % |
| Bulung'ur t. | 445 | 27,2 % | Kattaqo'rg'on sh. | 248 | 19,3 % |
| Payariq t. | 397 | 20,8 % | Paxtachi t. | 244 | 22,2 % |
| Kattaqo'rg'on t. | 373 | 18,9 % | Narpay t. | 238 | 18,3 % |
| Oqdaryo t. | 369 | 21,5 % | Qo'shrabot t. | 202 | 21,2 % |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda. Kichik biznes subyektlarining asosiy qismi Samarqand shahrida (28,1 foiz), Samarqand tumani (8,3 foiz), Urgut (7,8 foiz) va Pastdarg'om (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlarining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


| | | | |
|------------------|--------|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 10 732 | Oqdaryo t. | 1 715 |
| Samarqand t. | 3 157 | Bulung'ur t. | 1 635 |
| Urgut t. | 2 975 | Jomboy t. | 1 621 |
| Pastdarg'om t. | 2 891 | Narpay t. | 1 304 |
| Kattaqo'rg'on t. | 1 970 | Kattaqo'rg'on sh. | 1 284 |
| Ishtixon t. | 1 921 | Nurobod t. | 1 234 |
| Payariq t. | 1 912 | Paxtachi t. | 1 101 |
| Toyloq t. | 1 745 | Qo'shrabot t. | 952 |

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


| | |
|-------------------|-----|
| Nurobod t. | 413 |
| Pastdarg‘om t. | 348 |
| Samarqand t. | 317 |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 315 |
| Bulung‘ur t. | 212 |
| Urgut t. | 196 |
| Oqdaryo t. | 181 |
| Payariq t. | 144 |
| Jomboy t. | 135 |
| Ishtixon t. | 126 |
| Qo‘shrabot t. | 125 |
| Samarqand sh. | 120 |
| Paxtachi t. | 118 |
| Narpay t. | 106 |
| Toyloq t. | 73 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 49 |



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 233 |
| Urgut t. | 853 |
| Samarqand t. | 625 |
| Pastdarg'om t. | 503 |
| Ishtixon t. | 379 |
| Kattaqo'rg'on t. | 345 |
| Toyloq t. | 316 |
| Jomboy t. | 312 |
| Oqdaryo t. | 279 |
| Bulung'ur t. | 271 |
| Payariq t. | 263 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 258 |
| Paxtachi t. | 195 |
| Narpay t. | 181 |
| Qo'shrabot t. | 161 |
| Nurobod t. | 147 |



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 79,1 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 823 |
| Payariq t. | 219 |
| Pastdarg'om t. | 202 |
| Urgut t. | 166 |
| Samarqand t. | 135 |
| Oqdaryo t. | 122 |
| Kattaqo'rg'on t. | 122 |
| Toyloq t. | 121 |
| Jomboy t. | 111 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 106 |
| Ishtixon t. | 94 |
| Narpay t. | 73 |
| Paxtachi t. | 71 |
| Qo'shrabot t. | 68 |
| Bulung'ur t. | 61 |
| Nurobod t. | 59 |



Voliyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida hisoblangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, jami qurilish korxonalariga nisbatan:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 59,0 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,0 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,0 foizni tashkil etadi.

408



Fuqarolik
obyektlarini qurish

641

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 504


Bino va
inshootlar qurish



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 4 507 |
| Samarqand t. | 1 383 |
| Pastdarg'om t. | 1 349 |
| Urgut t. | 1 113 |
| Ishtixon t. | 909 |
| Payariq t. | 889 |
| Kattaqo'rg'on t. | 788 |
| Toyloq t. | 783 |
| Oqdaryo t. | 781 |
| Bulung'ur t. | 762 |
| Jomboy t. | 697 |
| Narpay t. | 693 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 556 |
| Paxtachi t. | 538 |
| Qo'shrabot t. | 431 |
| Nurobod t. | 347 |



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 486 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasi ulushi 72,1 foiz;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasi 17,6 foiz;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash 10,3 foizini tashkil etadi.

1 705

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 904

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


11 917

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 331 |
| Samarqand t. | 271 |
| Urgut t. | 213 |
| Pastdarg'om t. | 171 |
| Kattaqo'rg'on t. | 169 |
| Payariq t. | 162 |
| Toyloq t. | 152 |
| Jomboy t. | 145 |
| Ishtixon t. | 144 |
| Oqdaryo t. | 142 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 115 |
| Bulung'ur t. | 115 |
| Narpay t. | 114 |
| Nurobod t. | 72 |
| Qo'shrabot t. | 71 |
| Paxtachi t. | 52 |



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 439 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,6 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,4 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.

434

Yashash bo'yicha xizmatlar



3 005


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 305 |
| Payariq t. | 50 |
| Urgut t. | 50 |
| Oqdaryo t. | 37 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 35 |
| Ishtixon t. | 32 |
| Samarqand t. | 31 |
| Pastdarg'om t. | 30 |
| Bulung'ur t. | 22 |
| Toyloq t. | 19 |
| Kattaqo'rg'on t. | 18 |
| Jomboy t. | 12 |
| Narpay t. | 11 |
| Qo'shrabot t. | 10 |
| Nurobod t. | 6 |
| Paxtachi t. | 5 |



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 38,6 foizini tashkil etdi.


Shuningdek, axborot xizmati ko'rsatish sohasi 12,6 foizini, kompyuter dasturlashtirish maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar 35,2 foizini, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish 1,8 foizini, nashirlik faoliyati 10,7 foizini hamda dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyati bo'yicha 1,1 foizini tashkil etdi.



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 406 |
| Toyloq t. | 68 |
| Samarqand t. | 67 |
| Urgut t. | 60 |
| Payariq t. | 47 |
| Nurobod t. | 47 |
| Ishtixon t. | 46 |
| Pastdarg'om t. | 45 |
| Oqdaryo t. | 44 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 40 |
| Jomboy t. | 40 |
| Bulung'ur t. | 26 |
| Kattaqo'rg'on t. | 26 |
| Narpay t. | 24 |
| Paxtachi t. | 18 |
| Qo'shrabot t. | 13 |



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 907 tasi yoki 89,2 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

-97,2 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 95,3 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 110,5 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 87,5 foizni tashkil etdi.

7

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

21




989

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 395 |
| Samarqand t. | 96 |
| Toyloq t. | 84 |
| Urgut t. | 83 |
| Jomboy t. | 61 |
| Pastdarg'om t. | 61 |
| Bulung'ur t. | 38 |
| Ishtixon t. | 36 |
| Payariq t. | 35 |
| Narpay t. | 31 |
| Oqdaryo t. | 27 |
| Kattaqo'rg'on t. | 27 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 22 |
| Paxtachi t. | 19 |
| Nurobod t. | 18 |
| Qo'shrabot t. | 14 |



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

-quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 83,4 foizni tashkil etdi;

-ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 83,2 foizni;


-pochta va kuryerlik yo'nalishi 82,5 foizni tashkil etdi.

Havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 15,0 foizga oshgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl – subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;


-idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

| | | | | | |
|------------------|-------|--------|-------------------|-----|--------|
| Samarqand sh. | 1 338 | 16,6 % | Kattaqo'rg'on sh. | 218 | 21,3 % |
| Samarqand t. | 430 | 21,9 % | Oqdaryo t. | 206 | 19,9 % |
| Bulung'ur t. | 364 | 34,9 % | Toyloq t. | 196 | 23,6 % |
| Urgut t. | 309 | 16,7 % | Ishtixon t. | 185 | 23,5 % |
| Pastdarg'om t. | 308 | 21,3 % | Qo'shrabot t. | 173 | 25,7 % |
| Nurobod t. | 260 | 25,4 % | Jomboy t. | 154 | 17,3 % |
| Kattaqo'rg'on t. | 257 | 22,3 % | Paxtachi t. | 129 | 22,4 % |
| Payariq t. | 244 | 22,6 % | Narpay t. | 114 | 26,5 % |


2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 38 348 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 23 847 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi va tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Hududlar kesimida

| | | | |
|------------------|-------|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 8 037 | Nurobod t. | 1 025 |
| Samarqand t. | 1 967 | Kattaqo'rg'on sh. | 1 024 |
| Urgut t. | 1 853 | Jomboy t. | 890 |
| Pastdarg'om t. | 1 444 | Toyloq t. | 831 |
| Kattaqo'rg'on t. | 1 150 | Ishtixon t. | 787 |
| Payariq t. | 1 078 | Qo'shrabot t. | 674 |
| Bulung'ur t. | 1 042 | Paxtachi t. | 577 |
| Oqdaryo t. | 1 037 | Narpay t. | 431 |


2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Hududlar kesimida

| | | | | | |
|----------------|-----|--------|-------------------|----|--------|
| Pastdarg'om t. | 190 | 32,6 % | Samarqand t. | 74 | 26,8 % |
| Ishtixon t. | 141 | 21,2 % | Samarqand sh. | 72 | 8,6 % |
| Oqdaryo t. | 115 | 34,6 % | Kattaqo'rg'on t. | 40 | 16,3 % |
| Urgut t. | 102 | 15,2 % | Bulung'ur t. | 16 | 7,9 % |
| Toyloq t. | 98 | 22,6 % | Payariq t. | 16 | 14,8 % |
| Jomboy t. | 93 | 32,2 % | Qo'shrabot t. | 11 | 9,0 % |
| Narpay t. | 84 | 16,0 % | Kattaqo'rg'on sh. | 4 | 3,1 % |
| Paxtachi t. | 78 | 20,3 % | Nurobod t. | 3 | 2,0 % |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,6 foizni tashkil etgan.

Xususiy korxonalar sonining eng ko'p ulushi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Samarqand shahrida – 841 ta, Urgut tumani – 670, Ishtixon – 666, Pastdarg'om -583 va Narpay tumani– 525 tani tashkil etmoqda.


Hududlar kesimida

| | | | |
|----------------|-----|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 841 | Jomboy t. | 289 |
| Urgut t. | 670 | Samarqand t. | 276 |
| Ishtixon t. | 666 | Kattaqo'rg'on t. | 246 |
| Pastdarg'om t. | 583 | Bulung'ur t. | 202 |
| Narpay t. | 525 | Nurobod t. | 147 |
| Toyloq t. | 434 | Kattaqo'rg'on sh. | 128 |
| Paxtachi t. | 384 | Qo'shrabot t. | 122 |
| Oqdaryo t. | 332 | Payariq t. | 108 |


2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

| | | | | | |
|------------------|-----|--------|-------------------|----|--------|
| Samarqand sh. | 271 | 14,4 % | Jomboy t. | 55 | 12,6 % |
| Payariq t. | 137 | 19,5 % | Oqdaryo t. | 50 | 14,7 % |
| Pastdarg'om t. | 124 | 14,7 % | Narpay t. | 40 | 12,2 % |
| Samarqand t. | 111 | 12,1 % | Paxtachi t. | 37 | 28,0 % |
| Urgut t. | 75 | 17,3 % | Ishtixon t. | 34 | 7,7 % |
| Kattaqo'rg'on t. | 73 | 13,5 % | Kattaqo'rg'on sh. | 27 | 20,6 % |
| Toyloq t. | 67 | 13,9 % | Qo'shrabot t. | 16 | 15,1 % |
| Bulung'ur t. | 66 | 17,6 % | Nurobod t. | 13 | 25,0 % |


2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra 2022-yilning mos davriga nisbatan 77,7 foizni tashkil etgan.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 108,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


| | | | |
|------------------|-------|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 1 877 | Urgut t. | 433 |
| Samarqand t. | 918 | Bulung'ur t. | 376 |
| Pastdarg'om t. | 846 | Oqdaryo t. | 340 |
| Payariq t. | 702 | Narpay t. | 328 |
| Kattaqo'rg'on t. | 541 | Paxtachi t. | 132 |
| Toyloq t. | 481 | Kattaqo'rg'on sh. | 131 |
| Ishtixon t. | 440 | Qo'shrabot t. | 106 |
| Jomboy t. | 435 | Nurobod t. | 52 |

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Hududlar kesimida

| | | | | | |
|------------------|----|--------|-------------------|---|--------|
| Samarqand sh. | 65 | 24,5 % | Kattaqo‘rg‘on sh. | 2 | 11,8 % |
| Oqdaryo t. | 6 | 20,7 % | Jomboy t. | 2 | 6,1 % |
| Samarqand t. | 6 | 20,0 % | Pastdarg‘om t. | 2 | 7,1 % |
| Bulung‘ur t. | 4 | 22,2 % | Nurobod t. | 2 | 16,7 % |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 3 | 20,0 % | Urgut t. | 2 | 4,8 % |
| Qo‘shrabot t. | 3 | 15,0 % | Ishtixon t. | 1 | 7,1 % |
| Payariq t. | 3 | 23,1 % | Paxtachi t. | 1 | 11,1 % |
| Toyloq t. | 3 | 25,0 % | | | |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 8,1 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 110 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallab viloyatda chet el investitsiya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,6 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya Respublikasi (ulushi 18,3 foiz) va Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 14,6 foiz) davlatlari ham yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Hududlar kesimida


| | | | |
|----------------|-----|-------------------|----|
| Samarqand sh. | 265 | Kattaqo'rg'on sh. | 17 |
| Urgut t. | 42 | Kattaqo'rg'on t. | 15 |
| Jomboy t. | 33 | Ishtixon t. | 14 |
| Samarqand t. | 30 | Payariq t. | 13 |
| Oqdaryo t. | 29 | Nurobod t. | 12 |
| Pastdarg'om t. | 28 | Toyloq t. | 12 |
| Qo'shrabot t. | 20 | Paxtachi t. | 9 |
| Bulung'ur t. | 18 | Narpay t. | 5 |

2023-yil yanvar–noyabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 316 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Xorijiy korxonalar

Qo'shma korxonalar

| | | |
|------------|-------------------|------------|
| 143 | Samarqand sh. | 122 |
| 5 | Kattaqo'rg'on sh. | 12 |
| 13 | Oqdaryo t. | 16 |
| 9 | Bulung'ur t. | 9 |
| 10 | Jomboy t. | 23 |
| 4 | Ishtixon t. | 10 |
| 6 | Kattaqo'rg'on t. | 9 |
| 13 | Qo'shrabot t. | 7 |
| 2 | Narpay t. | 3 |
| 8 | Payariq t. | 5 |
| 8 | Pastdarg'om t. | 20 |
| 3 | Paxtachi t. | 6 |
| 9 | Samarqand t. | 21 |
| 3 | Nurobod t. | 9 |
| 7 | Urgut t. | 35 |
| 3 | Toyloq t. | 9 |

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Xorijiy korxonalar



Qo'shma korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 66-235-14-42